

DEVON ASARLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Yusufjon Djurabayev
pointnuqtai@outlook.com

Kalit so'zlar: Navoiy, devon, Xusrav Dehlaviy, G'aznaviy, Besutun, to'plam, bayoz, manba, matn, janr, debocha, qasida.

Bugungi kunda XX asr boshlari o'zbek adabiyoti tarixini xolis va haqqoniy o'rganish imkoniyati har qachongidan ham kuchaydi. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti vakillari asarlarini tadqiq etish borasidagi yutuqlar ana shu imkoniyatlar samarasidir. Ammo bu davr ijodkorlarining hali o'rganilmagan, mutaxassislar nazaridan chetda qolib kelayotgan jihatlari ko'p. Xususan, XX asr boshlari Xorazm, Xiva, Farg'ona vodiysi shoirlarining xos yondashuvlari, meroslaridagi an'ana va yangilanish singari masalalar yaxlit ilmiy muammo sifatida o'rganilmagan. Istiqlool davri adabiyotshunosligida bu ijodkorlar adabiy merosi yuzasidan ba'zi tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ammo ular ijodidagi mumtoz adabiy an'analar tadriji va yangilanishi masalasini ilmiy o'rganish hamda diniy-ma'rifiy, axloqiy asarlari qiyosiy tadqiqini amalga oshirish zarurati o'zbek adabiyotshunosligi kun tartibida turgan ilmiy muammolardandir.

Devon – she'riy to'plam sanalib, undagi she'rlar qofiya yoki radiflarga ko'ra arab alifbosi tartibida joylashtiriladi. Bunda alifbo qofiyalanib keluvchi so'zlarning oxirgi harflari asosida bo'ladi. Sharqda Devon tuzish shoirning yetuklik belgisi bo'lgan, shoirlar o'z devonlarining mazmunan va shaklan rang-barang bo'lishiga e'tibor berganlar.

Devon o'ziga xos xususiyatlarini, tuzilish tarixini, muhit haqidagi ma'lumotlarni o'zida namoyon etadi. Masalan, Alisher Navoiy “Badoe' ul-bidoya” devonida devon tuzish tarixida yangilik bo'lgan devonining o'ziga xos xususiyatlari va uning qay tarzda bunyodga kelganligini bayon etishga alohida e'tibor beradi. Devonlarning muhim xususiyatlaridan biri uning ijodiy-biografik xarakterda bo'lishidir. Devonlarni o'qish chog'ida shoir hayoti va ijodining juda ko'p qirralari bilan tanishish imkoniyati ochiladi. Masalan, Alisher Navoiy har ikki devonda ham Husayn Boyqaro shoir ijodini doimo kuzatib borgani, she'rlarini tahrir qilgani, ayrim o'zgartirishlar kiritgani haqida so'zlaydi. Bu ma'lumotlar Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlarini o'rganishda muhimdir. Navoiydan keyingi davrda yashagan qator shoirlar ham bu sohadagi an'analarni davom ettirishga intilganlar. Ularning devonlarida yuqoridagi xususiyatlar bilan birga o'ziga xos jihatlari ham paydo bo'la boshladi. Bular biografik ma'lumotlarga devonda kengroq o'rin berish, davrning ijtimoiy-siyosiy voqealarini tasvirlashda aniqlikka intilish (Munis devoni), barcha asarlar ro'yxatini keltirish (Ogahiy devoni), fikrlarni dalillash maqsadida ko'plab Qur'on oyatlaridan foydalanish (Tabiiy, Muhsiniy devonlari), devonining yozilgan vaqtini ko'rsatish (Muhsiniy devoni) kabi xususiyatlardir.

Devonlar tarkibida yuqorida ta'kidlaganimizdek, turli janrdagi she'riy parchalar ko'plab keltiriladi. G'azallar, ruboiylar, muxammas va musaddaslar shular jumlasidandir. Devonlar

shoirning o‘zi tomonidan yoki kotib, shuningdek, devon tuzuvchi shaxs tomonidan yoziladi. Shuni ta’kidlash kerakki, kotib yoki devon tuzuvchi shaxs tomonidan yozilgan devonlar muallif tomonidan yozilgan devondan keskin farq qiladi. Chunki bu xarakterdagi devonlarda, asosan, turli manbalarga asoslangan holda shoir hayoti va ijodiga doir ma’lumotlar keltiriladi, devonning tuzilishi va ko‘chirilish sabablari izohlanadi. Masalan, Muhammad Gulandom do‘sti shoir Hofiz Sheroziy o‘limidan so‘ng uning she‘rlarini to‘plab devon tuzganini. Yoki huddi shu devonga Husayn Boyqaro saroyida xizmat qilgan Navoiyning zamondoshi Xoja Abdulloh Marvarid Bayoniy ham devon yozganini misol keltirish mumkin. Monografiyada shoir tomonidan yozilgan devonlar tadqiq etiladi. Umuman, devon devon tuzilishi bilan bog‘liq adabiy hodisadir. Shuning uchun alifbo tartibidagi devonning vujudga kelish jarayoni bilan tanishish muhimdir.

Unsuriy, Farruxiy, Manuchehriy, Mas‘ud Sa‘di Salmon, Sanoiy kabi shoirlarning to‘liq yohud noto‘liq nusxada bizgacha yetib kelgan devonlari X-XI asrlarda bitilgan devonlar haqida, qolaversa, XI asr tarixi haqida atroflicha ma’lumot beradi. Bu davrdagi devonlarda asosiy o‘rinni qasida janri egallagan bo‘lib, g‘azalga esa kam e‘tibor berilgan. XI asrning ikkiichi yarmi va XII asr boshlarida yashab ijod etgan Sanoiy ijodida g‘azal alohida poetik janr sifatida rivojlana boshlagan. I.S.Braginskiy ham XI asr shoiri Hasan G‘aznaviy devoni yaratilishi bilan g‘azal janri devonlarda alohida bo‘lim sifatida o‘rin egallay boshlaganligini ta’kidlaydi. Adabiyotshunos olim Sh.Shomuhamedov fors-tojik adabiyotida g‘azalning paydo bo‘lishi xususida fikr yuritarkan, shunday yozadi: «Fors adabiyoti tarixida g‘azal formasi X-XI asrlardayoq ma’lum edi. Hatto Hasan G‘aznaviy XI asrda shoirlar g‘azalni o‘z devonlarida alohida bo‘lim qilib ajratganlarini aytgan. Ammo shunga qaramay, g‘azal u davrda hali tamoman mustaqil janr darajasiga ko‘tarila olmagan edi. Buning, albatta, tarixiy sabablari bor».

X-XII asrlarda shakllana boshlagan g‘azal XIII-XIV asrlarga kelib Sa‘diy va Hofizlar ijodida o‘zining yuksak takomiliga erishdi. Buni A.Mirzoyev, A.Hayitmetov, Yo.Is‘hoqov, N.Mallayev, O.Nosirov kabi adabiyotshunos olimlar ham o‘z tadqiqot va maqolalarida ta’kidlab o‘tishgan. Sharq xalqlari adabiyotida g‘azalchilikning rivojlanishi bilan devon qat‘iy bir shaklga ega bo‘la boshladi. S.Ayniy “Shayx Muslihiddin Sa‘diy Sheroziy” nomli ilmiy tadqiqotida alifbo asosida devon tartib berish odat emasligini ta’kidlab, Sa‘diy devonini alifbo asosida tartibga solish Besutun taxallusli Ali binni Ahmad ibni Abubakr degan shaxs tomonidan amalga oshirilganligini so‘zlaydi.

Shu o‘rinda S.Ayniy Sa‘diy “Kulliyot”iga Besutun tomonidan yozilgan devonning qisqacha mazmunini keltiradi: “...Bir g‘azalni Sa‘diy kulliyotidan qidirib topolmadik. Shu munosabat bilan do‘stlar mendan Sa‘diy devoniga fehris tuzishimni iltimos qildilar. Men 726/1326-yilda bu ishni bitirdim. Shu vaqtda do‘stlardan biri Sa‘diyning bir baytini menga yozib berib, bu bayt bor g‘azalni topib berishimni so‘radi. Men o‘z fehristim bo‘yicha qancha qidirsam ham, u g‘azalni topolmadim. Chunki men fehrisni g‘azalning bosh harfi bo‘yicha tuzgan edim. Haligi bayt g‘azal o‘rtasidagi bayt bo‘lgani uchun topib bo‘lmadi. Shu voqeadan so‘ng bu tartibning xato ekanligini anglab, qaytadan ishlab, fehrisni har g‘azalning oxirgi harfi bo‘yicha tuzdim va bu ishni 734/1334-yilda tugatdim”. Shuningdek

professor Sh.Shomuhamedov ham Sa'diy "Kulliyoti"dagi she'rlarning qofiya va radifga qarab alfavit asosida Ali binni Ahmad ibni Abubakr Besutun tomonidan joylashtirilganligini ta'kidlaydi. Demak, Sharq xalqlari adabiyotida alifbo asosida devon tartib berish shundan so'ng qat'iy bir qoidaga aylangan. Ayni paytda Sa'diygacha bo'lgan shoirlarning devonlari ham shu asosda qayta tuzila boshlagan. O'zbek adabiyotida Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy kabi shoirlar fors-tojik shoirlari ijodidagi an'analarni davom ettirganlari holda o'zbek g'azalchiligini muhim yutuqlar bilan boyitdilar. Ular o'z asarlarining keng xalq ommasiga tezroq yetib borishini istar edilar. Shu istak faqat til tanlashdagina emas, adabiy janr tanlashda ham ahamiyatini yo'qotmadi.

Bu shoirlar o'z she'riy devonlarini tuzdilar va bu devonlarda, asosan, xalq ommasiga yaqin bo'lgan g'azal janri yetakchi o'rin egallagan edi. Mutaakkir shoir Navoiy o'zigacha bo'lgan o'zbek shoirlarining g'azalchilikda to'plagan yutuq va tajribalarini o'rganish, shuningdek, fors-tojik klassiklarining an'analarni ijodiy o'zlashtirish asosida o'zbek g'azalchiligini jahon miqyosiga olib chiqdi. Navoiy o'z devonlari bilan klassik devon tuzishning yuksak namunasini yaratdi. Shoir 1478-79 yillarda o'z she'rlarini to'plab, birinchi devoni "Bado'e ul-bidoya" ("Badiiylilik ibtidosi")ni, 1480-87 yillar orasida esa keyingi davrda yozgan she'rlarini jamlab, ikkinchi devoni "Navodir un-nihoya" ("Nihoyaning nodirligi")ni tuzadi. 1491-98 yillar davomida avvalgi ikki devoni va keyingi davrda yaratilgan she'rlarni o'z ichiga olgan to'rt devondan iborat "Xazoyinul-maoniyy" ("Ma'nolar xazinasi")ni tuzadi. Alisher Navoiy ham fors-tojik shoirlari kabi devonlarini tuzishda g'azal janriga alohida e'tibor beradi. Devonlarda g'azalga keng o'rin berish o'zbek adabiyotida Lutfiy, Gadoiy, Atoylardan boshlangan edi. Devon tuzishning bu xususiyati Navoiy ijodida yanada qat'iylashdi va keyingi davr shoirlari tomonidan bu an'ana davom ettirildi.

Sharq xalqlari adabiyoti tarixida devonlarga yozilgan ilk devonlar fors-tojik adabiyotida uchraydi. Sharqshunos olim Yevgeniy Bertels Eron Milliy kutubxonasida saqlanayotgan Sanoiy devonining qadimgi qo'lyozma nusxasida shoir tomonidan yozilgan nasriy devon mavjudligi haqida o'z tadqiqotlarida xabar berib o'tgan. Murakkab va jimjimador nasriy uslub bilan yozilgan devonda shoir butun adabiy faoliyati davomida umidsizlikka tushganligi, do'sti va homiysi Ahmad ibn Mas'ud Mustavfiy unga taskin berganligi va tarqoq she'rlarini to'plab, devon tuzishga chaqirganligi haqida so'zlaydi.

Fors, urdu, hind va arab tillarida ijod olib brogan, dastlab "Sultoniyy" so'ng Dehlaviy taxallusi bilan tanilgan shoir, adabiyotshunos Xusrav Dehlaviyning devonlari devon ilmini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Hayoti davomida yozgan she'riy merosini umr fasllariga moslab, besh devon tartib bergan shoirning uslubi keyinchalik Jomiy va Navoiyning devonlarida ham namoyon bo'lgan. Ular ham shu tartibdan foydalanganlar. Buni Navoiyning o'zi ham "Bado'e ul-bidoya" devoniga yozgan debochasida e'tirof etgan. Bu devonlar "Tuhfat as-sig'ar" ("Yoshlik tuhfasini", 1272), "Vasat al-hayot" ("Umr o'rtasi", 1284), "G'urrat al-kamol" ("Kamolot boshlanishi", 1293), "Baqiya an-naqiya" ("Saralarning sarasi", 1316), "Nihoyat al-kamol" ("Kamolot nihoyasi" 1325) deb atalib, umumiy hajmi 32645 bayt. Shoirning 2000 dan ortiq g'azal, 300 atrofida qasida, 20 ga yaqin masnaviy,

1200 dan ziyod ruboiy, 500 tacha qit’a va boshqa janrlardagi asarlari ushbu devonlardan o‘rin olgan. Bu devonlar Hindiston, Britaniya, Eron kutubxonalari, shuningdek, hamdo‘stlik mamlakatlari kutubxonalari fondlarida saqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shomuhamedov Sh. Sa’diy Sheroziy. – Toshkent: Fan, 1964. – B.25.
2. Nosirov O. O‘zbek klassik adabiyotida g‘azal janrining shakllanishi va takomili. Filol. fan. nom. dissertatsiyasi. – Toshkent, 1968. – B. 49.
3. Ayni S. Asarlar. 8-tom. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967. – B. 178.
4. Alisher Navoiy. MAT. Badoe’ ul-bidoya. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1987. – B.
5. O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, D harfi. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2005. – B.140.
6. Бертельс Е.Э. Избранные труды. История персидско-таджикской литературы. – М.: ИВЛ, 1960.
7. Брагинский И.С. Из истории персидско-таджикской литературы. Избранные работы. – М.: Изд. Наука, 1972. – Стр. 169.